



O'zbekistonda Mustaqillik Yillarida Tarixiy Ong Va Milliy O'zlikni Shakllantirish Jarayonlari

Yulduz Baxtiyarovna Xusanbayeva

Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

kafedrasi katta o'qituvchisi.

husanbayevayulduz@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O'zbekistonda mustaqillik davrida tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayonlari tarixiy va nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda tarixiy xotira, milliy identitet va madaniy meros tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-madaniy islohotlarning tarixiy ongni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari tarixiy ong va milliy o'zlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi hamda globallashuv sharoitida milliy identitetni saqlab qolishning muhim omillarini aniqlaydi.

Kalit so'zlar: tarixiy ong, milliy o'zlik, tarixiy xotira, identitet, madaniy meros, mustaqillik, ijtimoiy islohotlar, globallashuv.

Аннотация.

В данной статье анализируются процессы формирования исторического сознания и национальной идентичности в период независимости Узбекистан. Раскрывается сущность понятий исторической памяти, национальной идентичности и культурного наследия, а также обосновывается их роль в развитии общества. Особое внимание уделяется значению социально-культурных реформ в формировании исторического сознания. Результаты исследования показывают взаимосвязь исторического сознания и национальной идентичности, а также выявляют основные факторы сохранения национальной идентичности в условиях глобализации.

Ключевые слова: историческое сознание, национальная идентичность, историческая память, культурное наследие, независимость, социальные реформы, глобализация.

Abstract.

This article analyzes the processes of formation of historical consciousness and national identity during the independence period of Uzbekistan from historical and theoretical perspectives. The study reveals the essence of the concepts of historical memory, national identity, and cultural heritage, and substantiates their role in societal development. Special attention is paid to the significance of socio-cultural reforms in shaping historical consciousness. The findings demonstrate the interrelation between historical consciousness and national identity and identify key factors for preserving national identity in the context of globalization.

Keywords: historical consciousness, national identity, historical memory, cultural heritage, independence, social reforms, globalization.

Kirish. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar amalga oshirildi. Mazkur o'zgarishlar jarayonida tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Zero, tarixiy xotira va milliy identitet jamiyat barqarorligi, ijtimoiy birdamlik hamda taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni asrab-avaylash va uni yosh avlod ongiga singdirish dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu



nuqtai nazardan, mustaqillik davrida tarixiy ongni shakllantirish jarayonlarini o'rganish nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ham egadir. Chunki tarixiy ong orqali jamiyat o'z o'tmishini angelaydi, bugungi taraqqiyot yo'lini belgilaydi va kelajak istiqbollarini shakllantiradi.

Mazkur ishning dolzarbligi shundan iboratki, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida milliy qadriyatlar tiklandi, tarixiy merosga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi hamda milliy o'zlikni anglash jarayonlari yangi bosqichga ko'tarildi. Biroq ushbu jarayonlarning tarixiy va nazariy jihatdan tizimli tahlili hali ham dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda mustaqillik davrida tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayonlarini tarixiy va nazariy jihatdan kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tarixiy ong va milliy o'zlik tushunchalarining nazariy asoslarini yoritish, mustaqillik davrida tarixiy xotira siyosatining shakllanish jarayonini tahlil qilish, milliy qadriyatlar va tarixiy merosning tiklanish omillarini aniqlash, yoshlar ongida tarixiy tafakkurni shakllantirish mexanizmlarini o'rganish zarurdir.

Adabiyotlar sharhi. Mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, tarixiy ong va milliy o'zlik masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, xorij olimlaridan Benedict Anderson milliy identitetni "tasavvur qilingan hamjamiyat" sifatida talqin etgan bo'lsa, [3;18.] Anthony D. Smith millatlarning etnik ildizlari va tarixiy xotira omiliga alohida e'tibor qaratadi. [4;20.] Shuningdek, o'zbek olimlari va tadqiqotchilari tomonidan ham mustaqillik yillarida milliy o'zlikni tiklash, tarixiy merosni qayta baholash va tarixiy ongni shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Maqolada mustaqillik davrida tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayonlari ilmiy asosda tahlil qilinadi hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ochib beriladi.

Metodologiya. Mazkur ishda O'zbekistonda mustaqillik davrida tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayonlarini o'rganishda kompleks yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik va tizimlilik tamoyillari tashkil etadi. Tarixiylik tamoyili asosida mustaqillik yillarida jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ularning vujudga kelish shart-sharoitlari va rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi. Tizimlilik tamoyili esa tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayonlarini yagona ijtimoiy tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Jumladan, qiyosiy-tarixiy metod, tizimli tahlil, analitik va sintetik metodlar, kontent-tahlil kabi motodlar yordamida mavzuga oid hujjatlar, ilmiy-uslubiy manbalarni o'rganishda qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda mustaqillik yillarida tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayonlari bo'yicha olib borilgan tahlillar ushbu masalaning ko'p qirrali va murakkab ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Mazkur jarayonni chuqur anglash uchun uni nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-falsafiy va madaniy nuqtai nazardan ham baholash muhimdir. O'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tarixiy ong va milliy o'zlik masalasi mustaqillikning muhim ma'naviy asosi sifatida talqin etiladi. Jumladan, O'zbekistonning 1-Prezidenti I.A.Karimov asarlarida tarixiy xotira va milliy o'zlikni tiklash jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etilib, "o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q" degan g'oya ilgari suriladi. [1;5.] Bu qarashlar mustaqillik yillarida tarixiy ongni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining nazariy asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti Islom Karimov 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi ziyolilari, jumladan tarixchilar bilan uchrashuvda shunday degan edi: "O'z tarixini bilgan, undan ruhiy kuch oladigan xalqni yengib bo'lmaydi. Biz haqiqiy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz kerak. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirishimiz zarur". Mazkur uchrashuvda yurtboshimiz tomonidan bildirilgan fikrlar Toshkent shahridagi "Sharq" nashriyotida "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomi bilan alohida kitob sifatida chop etilgan. [2.]



O'zlikni anglash, avvalo, o'tmishni o'rganish va tarixga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Har bir inson o'z kelib chiqishi, ajdodlari kim bo'lgani, ularning hayoti va faoliyati haqida bilishga intiladi hamda ularning merosi bilan faxrlanadi. O'tmishni tiklash va tarixiy haqiqatni qaror toptirish orqali jamiyatning dunyoqarashi va tafakkuri boyiydi. Bu esa demokratik, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Vatan tarixini va xalq o'tmishini chuqur o'rganish bugungi kunda har bir insonda mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi. Ayniqsa, yosh avlod uchun tarixni bilish hayot yo'lini to'g'ri tanlash, bugungi kun qadriga yetish va kelajakni ongli ravishda belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o'zbek tadqiqotchilari milliy o'zlikni shakllantirishda tarixiy meros va madaniy qadriyatlarining o'rniga alohida urg'u beradilar. Ularning fikricha, tarixiy ongni rivojlantirish jarayoni ajdodlar merosini chuqur o'rganish, uni zamonaviy talablarga mos ravishda talqin etish va yosh avlod ongiga singdirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda ta'lim tizimi va madaniy-ma'rifiy muassasalar muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik davrida tarixiy ongni shakllantirish jarayoni ikki asosiy yo'nalishda rivojlangan: birinchisi — tarixiy haqiqatni tiklash va xolis baholash, ikkinchisi esa — milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi ma'naviy omillarni rivojlantirishdir. Bu ikki yo'nalish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Bundan tashqari, ayrim o'zbek olimlari tomonidan globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolish muammolariga ham e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, zamonaviy axborot makonida milliy qadriyatlarining yemirilish xavfi mavjud bo'lib, bu holat tarixiy ongni shakllantirish jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli milliy o'zlikni mustahkamlashda tarixiy xotira va madaniy merosni asrab-avaylash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, o'zbek ilmiy adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayonlari davlat siyosati, ta'lim tizimi va madaniy muhitning o'zaro uyg'unligi asosida rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot natijalari mavjud ilmiy qarashlarni to'ldiradi va ularni tizimli ravishda umumlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayon, avvalo, jamiyatning o'z tarixiga bo'lgan munosabatining tubdan o'zgarishi bilan xarakterlanadi. [6.]

Birinchidan, mustaqillik yillarida tarixiy xotirani tiklash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ilgari yetarli baholanmagan tarixiy meros qayta ko'rib chiqildi, buyuk ajdodlar faoliyati keng targ'ib qilina boshlandi. Natijada jamiyatda milliy g'urur va o'zlikni anglash darajasi sezilarli oshdi.

Ikkinchidan, ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar tarixiy ongni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Tarix faniga oid darsliklar qayta ishlab chiqildi, milliy tarixga oid mavzular kengaytirildi. Bu esa yosh avlodda tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qildi.

Uchinchidan, madaniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar milliy o'zlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Muzeylar, madaniyat markazlari, tarixiy obidalarni tiklash ishlari tarixiy xotiraning moddiy asosini kuchaytirdi.

Tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha omillar — davlat siyosati, ta'lim tizimi, madaniy meros va ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadi.[5;5.] Ushbu omillarning uyg'unligi jamiyatda barqaror milliy identitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarixiy ongni rivojlantirish jarayonida globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy talablarga mos ravishda talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa milliy o'zlikni saqlab qolish bilan birga, uning zamonaviy rivojlanishini ta'minlaydi.

Mustaqillik yillarida milliy taraqqiyotimizni shartli ravishda ikki bosqichga: 1991 — 2016-yillar va 2016-yildan to bugungi kungacha davom etayotgan davrlarga ajratish mumkin.



Ta'bir joiz bo'lsa, har ikkala davr ham o'ziga xos murakkabliklarga ega. Birinchi bosqichning murakkabligi milliy-ma'naviy tiklanish mustaqillikni asrab qolish bilan bog'liq kechdi. Ayni paytda milliy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan nazariy asosni yaratishni ham taqozo etdi.[7.]

Xulosa. O'zbekiston mustaqillik davrida tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish jarayonlari kompleks ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqillik yillarida tarixiy xotira va milliy identitetni tiklash hamda rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Tarixiy ongni shakllantirish jarayoni ta'lim tizimi, madaniy-ma'rifiy faoliyat va ijtimoiy muhitning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshiriladi. Ayniqsa, tarixiy merosni qayta baholash, milliy qadriyatlarni tiklash va ularni yosh avlod ongiga singdirish ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Globalashuv sharoitida milliy identitetni saqlab qolish va rivojlantirish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois tarixiy ongni shakllantirish jarayonlarini ilmiy asosda o'rganish va takomillashtirish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 123 b.
2. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. — Toshkent: Sharq, 1998.
3. Benedict Anderson. Imagined Communities. — London, 1983.
4. Anthony D. Smith. The Ethnic Origins of Nations. — Oxford, 1986.
5. Saloydinova Maxliyoxon Abduvali Qizi (2025). MUSTAQILLIK DAVRIDA MILLIY O'ZLIKNI SHAKLLANTIRISH SIYOSATINING TARIXIY ASOSLARI VA IJTIMOY TA'SIRI (1991–2010). Research Focus, 4 (6), 89-95. doi: 10.5281/zenodo.16153229
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/mustaqillik-yilnomasi-1991-2016>
7. <https://xs.uz/uz/post/millij-taraqqiyotning-oidin-joli>